KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

NOYABR, 2026



ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
https://konferensiyalar.com

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil).– 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr

Mas’ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya
Mazkur to‘plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar” mavzusidagi XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o‘rin olgan bo‘lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag‘ishlangan.
Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta’lim o‘qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2026-yil
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

FALSAFA FANLARI

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA’LIM MODERNIZATSIYASINING IJTIMOIY - FALSAFIY ZIDDIYATLARI

Jurayev Alisher Tulqinboyevich
University of Business and Science katta o‘qituvchisi,
falsafa fanlari doktori (PhD),
Tel: +998 99 270 00 20
Email: alisherumida1987@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-8879-6093
Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim modernizatsiyasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-falsafiy ziddiyatlar dialektik, tizimli-sinergetik va qiyosiy tahlil asosida yoritilgan. Raqamli transformatsiya ta’limning tashqi sharoiti emas, balki uning maqsadi, mazmuni, shakli va subyektlar tarkibini ichdan o‘zgartiruvchi makrojarayon sifatida talqin etilgan. Raqamli davr ziddiyatlarining muallifona tipologiyasi taklif qilingan: global raqobatbardoshlik va milliy o‘ziga xoslik, raqamlashuv va ijtimoiy tenglik, bozor mantig‘i va jamoat manfaati, avtonomiya va hisobdorlik o‘rtasidagi ziddiyatlar. Har bir ziddiyatning mohiyati, xatarlari va dialektik yechimi ko‘rsatilgan, nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklikning ularni hal etishdagi roli aniqlashtirilgan. Ziddiyatlar alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq yaxlit tizim hosil qilishi ko‘rsatib berilgan. Raqamli tafovutning uch darajasi, ta’limning “platformalashuvi” hamda EdTech kompaniyalarining yangi nodavlat subyekt sifatidagi o‘rni alohida tahlil qilingan. Ziddiyatlarni hal etishning maqbul yo‘li “moslashuvchan integratsiya” va “ijtimoiy kiritilgan bozor” tamoyillariga tayangan polisubyekt model ekani asoslangan. Natijalar O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirish siyosati, nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ijtimoiy adolat mezonlari asosida loyihalashga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: ta’lim modernizatsiyasi, raqamli transformatsiya, ijtimoiy-falsafiy ziddiyat, raqamli tafovut, platformalashuv, moslashuvchan integratsiya, ijtimoiy kiritilgan bozor, davlat-xususiy sheriklik.

SOCIO-PHILOSOPHICAL CONTRADICTIONS OF EDUCATION MODERNIZATION IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Jurayev Alisher
Senior Lecturer University of Business and Science,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences,
Namangan, Uzbekistan

Annotation. The article examines, through dialectical, systemic-synergetic and comparative analysis, the socio-philosophical contradictions that arise in education modernization under globalization and digital transformation. Digital transformation is interpreted not as an external condition of education but as a macro-process that reshapes its goals, content, forms and composition of actors. The author proposes a typology of the contradictions of the digital era: between global competitiveness and national identity, digitalization and social equality, market logic and the public interest, and autonomy and accountability. For each contradiction its essence, risks and dialectical resolution are shown. The three levels of the digital divide, the “platformization” of education and the place of EdTech companies as new non-state actors are analysed separately. It is argued that the optimal way of resolving the contradictions is a poly-subject model based on the principles of “flexible integration” and the “socially embedded market”. The results offer a methodological basis for education digitalization policy and partnership projects in Uzbekistan.

Keywords: education modernization, digital transformation, socio-philosophical contradiction, digital divide, platformization, flexible integration, socially embedded market, public-private partnership.

DOI: https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i21/n05

KIRISH

XXI asrda ta’lim tizimlari ikki qudratli makrojarayon — globallashuv va raqamli transformatsiya ta’sirida yangilanmoqda. Bugun o‘quv jarayonining muhim qismi onlayn platformalarda kechmoqda, ta’lim natijalari raqamli tarzda kuzatilmoqda, sun’iy intellekt vositalari esa talaba va o‘qituvchining kundalik ish quroliga aylanib bormoqda. Bu o‘zgarishlar ta’limga tashqaridan qo‘shilgan texnik yangilik emas: ular ta’limning maqsadi, mazmuni, shakli va kimlar tomonidan amalga oshirilishini ichdan qayta belgilamoqda.

Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan har qanday chuqur o‘zgarish ziddiyatlar orqali kechadi. Raqamli texnologiyalar ta’limni hamma uchun ochiq qilish va’dasini bersa-da, yangi tengsizlik shakllarini ham tug‘diradi; global ta’lim makoniga kirish imkoniyatlari kengaygani sari milliy ta’lim an’analarining zaiflashuv xavfi ortadi; xususiy texnologik kompaniyalar ta’limga resurs va innovatsiya olib kirgani bilan birga, uni tijorat mantig‘iga bo‘ysundirishi mumkin. Mavjud tadqiqotlarda raqamlashtirish ko‘pincha pedagogik-texnologik yoki iqtisodiy-boshqaruv masalasi sifatida o‘rganilgan, uning ta’lim modernizatsiyasidagi ziddiyatlarni qanday keskinlashtirishi va ularning o‘zaro bog‘liq tizim hosil qilishi esa yaxlit ijtimoiy-falsafiy tahlil predmeti bo‘lmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi — globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim modernizatsiyasining asosiy ijtimoiy-falsafiy ziddiyatlarini aniqlash, ularning mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari va xatarlarini ochib berish hamda nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklik ishtirokidagi dialektik yechim yo‘llarini asoslashdan iborat.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’limni raqamlashtirish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallarini ochish, kredit-modul tizimiga o‘tish kabi jarayonlar jadal kechmoqda. Bu jarayonlar mamlakat ta’lim tizimini davlat monopoliyasidan ko‘p subyektli modelga o‘tish bosqichiga olib chiqdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta’limdagi bozor va jamiyat munosabatlarini tushunishning nazariy poydevori XX asr o‘rtalarida qo‘yilgan. K.Polanyi “Buyuk transformatsiya” asarida o‘z-o‘zini boshqaruvchi bozorni utopiya deb baholadi: iqtisodiyot ijtimoiy munosabatlarga “kiritilgan” (embeddedness) bo‘lishi, ya’ni bozor jamiyatga bo‘ysunishi lozim [7]. R.Masgreyv esa “qimmatli ne’matlar” (merit goods) toifasini ajratdi [6]; ta’lim aynan shu toifaga mansub bo‘lib, bu uning sof bozor tovariga aylanib qolmasligining iqtisodiy-falsafiy asosidir.

1990-yillarda R.Robertson global va mahalliy unsurlarning qorishuvini “glokalizatsiya” atamasi bilan ifodaladi [8]. Jahon savdo tashkilotining Xizmatlar savdosi to‘g‘risidagi bosh kelishuvi (GATS) ta’limni xalqaro savdo obyekti bo‘lgan xizmatlar qatoriga kiritib, uni yetkazishning to‘rt usulini — transchegaraviy yetkazib berish (masalan, masofaviy ta’lim), xorijda iste’mol qilish, tijorat ishtiroki va jismoniy shaxslar ishtirokini ajratdi [4]. Raqamli jamiyat nazariyasining klassik ifodasi M.Kastelsning “tarmoqli jamiyat” konsepsiyasidir [2]. F.Cherni esa milliy davlatning “farovonlik davlati”dan “raqobat davlati”ga o‘tayotganini ko‘rsatdi [3].

Ya.van Deyk “raqamli tafovut”ni bosqichma-bosqich chuqurlashuvchi hodisa sifatida tasvirladi: avval texnik vositalarga ega bo‘lishda, so‘ngra ulardan foydalanish malakasida, nihoyat foydalanishdan olinadigan natijalarda farq yuzaga keladi [10]. N.Srnichek “platformali

kapitalizm” tushunchasini [9], B.Uilyamson esa ta’limning “platformalashuvi” muammosini [11] ilmiy muomalaga olib kirdi. YuNESKOning 2019-yilgi Pekin konsensusi ta’limda sun’iy intellektni qo‘llashni inson huquqlari, inklyuzivlik va adolat tamoyillari bilan cheklab, insonni ta’lim jarayonining markazida qoldirishni talab qiladi [1]. Tashkilotning 2023-yilgi generativ sun’iy intellekt bo‘yicha qo‘llanmasi esa bu texnologiyalarni davlat darajasida tartibga solish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va foydalanuvchilar uchun yosh chegarasini belgilashni taklif etadi [5].

B.S.Lipshits G‘arb andozalarini ko‘r-ko‘rona ko‘chirish milliy an’analarni yemirishi mumkinligini ta’kidlab, ochiqlikni puxta fundamental tayyorgarlik bilan uyg‘un olib borishni taklif etadi [16]. N.A.Mixalchenkova globallashuv davri oliy ta’limida besh siljishni qayd etadi: ta’lim jamoat ne’matidan shaxsiy ne’mat sifatida tushunila boshlandi, davlat subsidiyasi o‘rnini manbalar diversifikatsiyasi va xususiylashtirish egalladi, tijoratlashuv umumiy holga aylandi, avtonomiya kengaygani sari hisobdorlik va nazorat ham kuchaydi, sifatni baholash va akkreditatsiya xalqaro darajaga chiqdi [17; 57–58-b.]. Uning fikricha, “ikkilamchi” modernizatsiyani boshdan kechirayotgan davlatlar uchun bozor mantig‘i va jamoat manfaati o‘rtasidagi ziddiyatni yengish yoki yumshatish asosiy muammodir [17; 21-b.].

O‘zbek tadqiqotchilari raqamlashtirishni ko‘proq oliy ta’lim islohotlari kontekstida ko‘rib chiqqan. D.A.Alibekov modernizatsiyaning o‘zi murakkab va ziddiyatli jarayon bo‘lib qolishini qayd etadi [13; 18-b.]. A.A.Egamberdiyev raqamli transformatsiyada mamlakatning rivojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilishi, inson kapitali o‘sishi va boyliklardan teng bahramand bo‘lishning shartini ko‘radi [19; 20-b.]. N.B.Sunnatov an’anaviy ta’limni innovatsion-interaktiv va masofaviy shakllardan farqlaydi, biroq ular orasida fundamental bog‘liqlik saqlanishini ko‘rsatadi [18; 9-b.]. N.S.Jumaniyazova xalqarolashuvning ikki yoqlama oqibatlarini — sifat uchun mas’uliyatning ortishi va milliy qadriyatlarning susayish xavfini tahlil qiladi [15; 18–19-b.]. Z.B.Abdikarimova ta’limdagi sheriklik shaffoflik, sherikni adolatli tanlash va xatarlarni aniq taqsimlash ta’minlangandagina natija berishini asoslaydi [12].

Biroq ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarda raqamli davr ziddiyatlari ko‘pincha alohida-alohida tahlil qilinadi, ularning o‘zaro bog‘liq tizim sifatidagi tabiati hamda nodavlat sektor va sheriklikning ularni hal etishdagi o‘rni yetarlicha ochib berilmagan.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

• dialektik metod — ziddiyat qutblarini va ularning “uchinchi yo‘l” sifatidagi sintezini aniqlash;

• tizimli-sinergetik yondashuv — ziddiyatlarni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rish va bifurkatsiya holatidagi muqobil trayektoriyalarni aniqlash;

• institutsional tahlil — EdTech kompaniyalari, onlayn platformalar va xorijiy filiallarning ta’lim institutiga ta’sirini o‘rganish;

• aksiologik tahlil — raqamlashtirishning qadriyatiy-axloqiy oqibatlarini baholash;

• qiyosiy tahlil — xorijiy, MDH va o‘zbek tadqiqotchilarining yondashuvlarini hamda xalqaro hujjatlar talablarini solishtirish;

• me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili — ta’limni raqamlashtirish va sheriklikni rivojlantirishga oid qarorlarni o‘rganish.

Ziddiyatlarni tipologiyalashda uch mezon asos qilib olindi: ziddiyat qutblarining har biri ta’lim modernizatsiyasining legitim qadriyati bo‘lishi; raqamli transformatsiya ushbu

ziddiyatni yangi shaklda namoyon qilishi yoki keskinlashtirishi; ziddiyatning nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklik bilan bevosita bog‘liqligi. Har bir ziddiyat to‘rt jihat bo‘yicha tahlil qilindi: mohiyati, raqamli muhitdagi namoyon bo‘lish shakllari, xatarlari va dialektik yechim yo‘li.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijasida raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim modernizatsiyasining to‘rt asosiy ijtimoiy-falsafiy ziddiyati aniqlandi:

- global raqobatbardoshlik va milliy o‘ziga xoslik o‘rtasidagi ziddiyat;
- raqamlashuv va ijtimoiy tenglik o‘rtasidagi ziddiyat;
- bozor mantig‘i va jamoat manfaati o‘rtasidagi ziddiyat;
- avtonomiya va hisobdorlik o‘rtasidagi ziddiyat.

Dastlabki uchtasi tizim hosil qiluvchi asosiy ziddiyatlar bo‘lib, to‘rtinchisi ular, ayniqsa, global va bozor jarayonlari ta’sirida boshqaruv darajasida yuzaga chiqadigan hosila ziddiyatdir.

Global raqobatbardoshlik va milliy o‘ziga xoslik ziddiyatining mohiyati shundaki, milliy ta’lim tizimi endi o‘z strategiyasini faqat ichki ehtiyojlardan emas, balki xalqaro ta’lim makonidagi o‘rni va bitiruvchilarining jahon mehnat bozoridagi raqobatbardoshligidan kelib chiqib belgilashga majbur. Raqamli muhitda GATS ajratgan transchegaraviy yetkazib berish usuli ommaviy hodisaga aylandi, global platformalarning o‘quv kontenti esa milliy ta’lim standartlarini chetlab o‘tib, bevosita ta’lim oluvchiga yetib bormoqda. Xalqarolashuv jarayonida hukmron til mavqeining mustahkamlanishi va madaniyatlar qorishuvining tezlashuvi milliy qadriyatlar zaiflashuvi xavfini oshiradi [15; 18–19-b.].

Bu ziddiyatning ikki qutbi ham birdek xatarli. Global standartlarni boshqa madaniy-tarixiy sharoitga mexanik ko‘chirish milliy til, an’ana va qadriyatlar tizimini zaiflashtiradi, modernizatsiyani “vesternizatsiya”ga aylantiradi [17; 39-b.]. Global jarayonlardan o‘zini chetga olish esa ta’lim tizimini zamonaviy bilim va texnologiyalardan uzib qo‘yadi. Demak, to‘liq unifikatsiya ham, izolyatsiya ham nomaqbul.

Ushbu ziddiyatning dialektik yechimi sifatida tadqiqotda “moslashuvchan integratsiya” tamoyili asoslandi. Uning mohiyati global ta’lim makoniga integratsiyalashuvda milliy ta’lim tizimining subyektligini saqlash, xorijiy tajribani tanlab, milliy institutsional muhitga moslashtirib o‘zlashtirishdan iborat. Bu tamoyil R.Robertsonning “glokalizatsiya” g‘oyasi [8] va B.S.Lipshitsning taklifi [16] bilan hamohang, biroq integratsiyaning institutsional tashuvchisini — nodavlat sektor va sheriklikni aniq ko‘rsatadi. Shu sababli sheriklik shartnomalari va litsenziyalash talablarida milliy ta’lim standartlarining majburiy tarkibiy qismi — ona tili, tarix, milliy madaniyat — saqlanishi va xalqaro dasturlarni joriy etish erkinligi ham kafolatlanishi lozim.

Raqamlashuv va ijtimoiy tenglik ziddiyatining mohiyati raqamli texnologiyalarning ikki yoqlama salohiyatida namoyon bo‘ladi: nazariy jihatdan ular ta’limni har bir inson uchun ochiq qilishga qodir, amalda esa yangi tengsizlik shakli — raqamli tafovutni vujudga keltirmoqda. Ya.van Deyk konsepsiyasi [10] asosida bu tafovutning ta’limdagi uch darajasini ajratish mumkin: qurilma va barqaror internetga ega bo‘lish darajasi; raqamli savodxonlik va o‘quv maqsadida foydalanish malakasi darajasi; nihoyat, raqamli ta’limdan olinadigan bilim, ko‘nikma va ijtimoiy imkoniyatlar darajasi.

Bu ziddiyat pandemiya davrida yaqqol ko‘rindi: kompyuter, barqaror internet va ota-onalar ko‘magiga ega o‘quvchilar o‘qishni nisbatan to‘liq davom ettira oldi, bunday imkoniyatga

ega bo‘lmaganlarning esa ortda qolish xavfi kuchaydi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’limning pandemiya “stress-test”ini muvaffaqiyatli o‘tgani haqidagi baho [19; 7-b.] tizim darajasida o‘rinli bo‘lsa-da, ijtimoiy tenglik o‘lchovi bilan to‘ldirilishi lozim.

Raqamli ta’lim xizmatlari va platformalarining katta qismi xususiy kompaniyalar tomonidan yaratilib, pullik asosda taqdim etiladi. Sifatli raqamli resurslar faqat to‘lovga qodir oilalar uchun ochiq bo‘lsa, raqamli transformatsiya ijtimoiy tabaqalanishni chuqurlashtiradi. Platformalar ta’lim oluvchilar haqida to‘playdigan ma’lumotlarga kim egalik qilishi, ular qanday maqsadda ishlatilishi va shaxsiy hayot daxlsizligi qanday himoyalanishi ta’limning yangi axloqiy-falsafiy muammolarini yuzaga chiqaradi. N.B.Sunnatovning ta’lim inqirozi mablag‘ tanqisligidan emas, balki axloqiy tanazzuldan kelib chiqadi, degan fikri [18; 5-b.] raqamli transformatsiyani qadriyatiy-axloqiy masala sifatida ham ko‘rish zarurligini tasdiqlaydi.

Ushbu ziddiyatni hal etishda davlat-xususiy sheriklik muhim institutsional vosita bo‘la oladi. Davlatning raqamli infratuzilmani to‘liq o‘z hisobidan yaratish imkoniyati cheklangan, xususiy sektor esa ko‘proq tijorat jihatidan foydali loyihalarga qiziqadi. Sheriklik shartnomalari xususiy sektorning texnologik va moliyaviy resurslarini jalb qilish bilan birga, chekka hududlarni qamrab olish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari uchun imtiyozli kirish va ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha majburiyatlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin. Buning sharti — sheriklik loyihalari ijtimoiy natijalarini baholash mezonlarining aniq belgilanishi, shaffoflik va xatarlarning adolatli taqsimlanishidir [12].

Bozor mantig‘i va jamoat manfaati ziddiyati tahlil qilingan ziddiyatlarning eng chuquri bo‘lib, ta’limning bozor xizmati va ijtimoiy qadriyat sifatidagi ikki tabiati bilan bog‘liq. Ta’limning jamoat ne’matidan shaxsiy ne’matga, davlat moliyalashtirishidan manbalar diversifikatsiyasiga qarab siljishi [17; 57–58-b.] raqamli transformatsiya bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ta’lim jarayonining muhim qismi endi EdTech kompaniyalari va onlayn platformalar kabi “platformali kapitalizm” [9] mantig‘ida ishlovchi yangi nodavlat subyektlar orqali kechmoqda, ta’lim esa “platformalashuv” [11] jarayonini boshdan kechirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarining asosiy ishlab chiquvchilari yirik xususiy kompaniyalar ekanini hisobga olsak, YuNESKO qo‘llanmasida taklif etilgan davlat darajasidagi tartibga solish [5] bevosita ta’limda davlat va xususiy sektor munosabatlari masalasiga aylanadi.

Bozor mexanizmlari samaradorlik va moslashuvchanlikni oshirishi mumkin. Biroq bozor ta’limning qadriyatiy asoslaridan “ajralib chiqsa”, ta’lim tovarga aylanadi, uning ijtimoiy harakatchanlik, madaniy uzluksizlik va fuqarolik tarbiyasi funksiyalari zaiflashadi. Sof bozor mantig‘ining ta’limda to‘liq amal qila olmasligi ta’lim ne’matining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi: uning natijalari butun jamiyatga foyda keltiradi (tashqi samaralar), axborot nosimmetrikligi kuchli, ta’limning o‘zi esa “qimmatli ne’mat” [6] hisoblanadi. Raqamli muhitda axborot nosimmetrikligi yanada kuchayadi: onlayn kurs yoki ilovaning va’da qilingan samarasini oila oldindan baholay olmaydi.

Bu ziddiyatni hal etishning uch nazariy yo‘li mavjud. Birinchisi — davlat monopoliyasiga qaytish: u resurs yetishmovchiligi va sustlikka olib keladi. Ikkinchisi — ta’limni to‘liq bozorlashtirish: u qisqa muddatda resurs jalb qilsa-da, ijtimoiy tabaqalanishni va raqamli tafovutni kuchaytiradi. Uchinchisi — tadqiqotda K.Polanyining “kiritilganlik” g‘oyasini [7] ta’lim sohasiga tatbiq etish asosida ishlab chiqilgan “ijtimoiy kiritilgan bozor” modeli. Bunda bozor mexanizmlari davlat belgilagan ijtimoiy adolat, sifat va ochiqlik qoidalari doirasida amal

qiladi, nodavlat sektor va xususiy kapital, jumladan, EdTech kompaniyalari ham sheriklik shartnomalari orqali jamoat manfaatlariga yo‘naltiriladi.

Avtonomiya va hisobdorlik ziddiyati N.A.Mixalchenkova kuzatgan tendensiya — avtonomiya va nazoratning parallel kuchayishi bilan bog‘liq [17; 57–58-b.]. Ta’lim muassasalariga mustaqillik berish ularning tashabbuskorligi va moslashuvchanligini oshiradi, biroq jamiyat oldidagi hisobdorlik bilan muvozanatlashmagan mustaqillik sifat va adolat mezonlarini zaiflashtiradi. Raqamli transformatsiya bu ziddiyatga ikki yoqlama ta’sir ko‘rsatadi: elektron hujjat aylanishi va ta’lim natijalarini raqamli kuzatish hisobdorlikni shaffof va arzon qiladi, raqamli kuzatuvning haddan tashqari kengayishi esa muassasalar mustaqilligini rasmiy ko‘rsatkichlarga “moslashish”ga aylantirib qo‘yishi mumkin.

Bu ziddiyatning yechimi hisobdorlikni ma’muriy nazorat emas, balki shartnomaviy va ochiq mexanizmga aylantirishdadir: sheriklikda tomonlarning huquq va majburiyatlari, kutilayotgan natijalar va ularni baholash mezonlari oldindan belgilanadi. Mustaqil tadqiqot mualliflari maktabgacha ta’limdagi sheriklik misolida loyiha tayyorlashdan tanlov, bitim, monitoring va hisobotgacha bo‘lgan jarayonlarni shaxsiy ma’lumotlar himoyalangan yagona elektron platformaga jamlashni, hisobotlarni ochiq ma’lumot sifatida e’lon qilishni tavsiya etadi [14; 34–35-b.]. Biroq samarasiz ishlovchi axborot tizimi ishonchni pasaytirishi mumkin, shu bois platformani foydalanuvchilarning baholashi muntazam o‘rganilishi zarur.

Tahlil qilingan ziddiyatlar bir-biridan alohida emas, balki yaxlit tizim hosil qiladi. Global raqobatbardoshlikka intilish ta’lim tizimini xalqaro standartlar va raqamli texnologiyalarni jadal joriy etishga undaydi; buning uchun zarur resurslar ko‘pincha bozor mexanizmlari va xususiy investitsiyalar orqali jalb qilinadi; bu esa raqamli va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirish xavfini tug‘diradi; tengsizlikning kuchayishi esa ta’limning milliy birlikni ta’minlovchi integrativ funksiyasini zaiflashtiradi. Masalan, raqamli infratuzilmani tezroq yaratish uchun xususiy kapitalni ijtimoiy majburiyatlarsiz jalb qilish birinchi ziddiyatda yutuq bersa-da, ikkinchi va uchinchi ziddiyatlarni keskinlashtiradi.

Sinergetik nuqtai nazardan O‘zbekiston ta’lim tizimini bugun bifurkatsiya nuqtasiga yaqin holatda deb baholash mumkin: davlat monopoliyasiga asoslangan avvalgi barqarorlik buzildi, yangi barqaror holat esa hali shakllanmagan. Oliy ta’limda 2016–2021-yillarda qamrovning ikki baravar kengaygani [15; 18-b.] va moliyaviy barqaror oliygohlarga o‘zini o‘zi moliyalashtirishga o‘tish huquqi berilgani [15; 19-b.] davlat va nodavlat sektor o‘rtasidagi chegara tobora shartli bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Bunday sharoitda tizim uch muqobil trayektoriyadan biriga o‘tishi mumkin. Tartibga solinmagan bozor tabaqalashgan modelga, davlat monopoliyasiga qaytish sustlikka olib boradi. Agar davlat, nodavlat sektor va xususiy kapital o‘rtasidagi munosabatlar sheriklik, ijtimoiy adolat va mas’uliyat tamoyillari asosida qurilsa, tizim sifat jihatidan yuqoriroq barqarorlik darajasiga ko‘tariladi.

Uchinchi ssenariyda nodavlat sektor va sheriklik birinchi ziddiyatda xalqaro va raqamli tajribani milliy muhitga moslashtirib o‘tkazuvchi vosita, ikkinchisida raqamli tafovutni qisqartirish mexanizmi, uchinchisida bozorni ijtimoiy “kiritish”ning institutsional shakli, to‘rtinchisida esa mustaqillik va hisobdorlikni shartnoma va ochiq platforma orqali birlashtiruvchi tuzilma bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida bu xulosalar quyidagi amaliy ma’noga ega. Ta’limni raqamlashtirish dasturlari faqat infratuzilma ko‘rsatkichlari bilan emas, balki raqamli tafovutning ikkinchi va uchinchi darajalarini o‘lchovchi ko‘rsatkichlar bilan baholanishi zarur.

Xorijiy oliygohlar filiallari va onlayn xalqaro dasturlar “moslashuvchan integratsiya” tamoyili asosida milliy standartlarning majburiy tarkibiy qismi bilan muvofiqlashtirilishi lozim. EdTech kompaniyalari va sun’iy intellekt vositalarini joriy etishda ma’lumotlar himoyasi, yosh cheklovlari va algoritmlar shaffofligi bo‘yicha talablar sheriklik shartnomalariga kiritilishi maqsadga muvofiq. Davlat, global raqobatbardoshlikni ta’minlash bilan birga, Konstitutsiyada mustahkamlangan ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiq ta’lim olish huquqi kafolatlarini saqlab, “raqobat davlati” [3] va “ijtimoiy davlat” mantiqlarini uyg‘unlashtirishi kerak.

Tahlil nazariy-falsafiy xarakterga ega bo‘lib, raqamli tafovutning O‘zbekistondagi hududiy va ijtimoiy ko‘lamini o‘lchovchi empirik ma’lumotlar jalb etilmadi; generativ sun’iy intellektning ta’limga ta’siri esa alohida va muntazam yangilanib boriladigan tadqiqotni talab etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida globallashuv va raqamli transformatsiya ta’lim modernizatsiyasining tashqi sharoitigina emas, balki uning maqsadi, mazmuni, shakli va subyektlar tarkibini ichdan o‘zgartiruvchi makrojarayonlar ekani asoslandi. Raqamli davr ziddiyatlarining muallifona tipologiyasi ishlab chiqildi: global raqobatbardoshlik va milliy o‘ziga xoslik, raqamlashuv va ijtimoiy tenglik, bozor mantig‘i va jamoat manfaati o‘rtasidagi uch asosiy ziddiyat hamda ulardan kelib chiquvchi avtonomiya va hisobdorlik ziddiyati.

Ushbu ziddiyatlar o‘zaro bog‘liq tizim hosil qiladi, shu bois ularni alohida-alohida hal etib bo‘lmaydi. Raqamli tafovut texnik kirish imkoniyati ta’minlangach ham ko‘nikma va natija darajalariga ko‘chadi; ta’limning “platformalashuvi” va sun’iy intellekt texnologiyalarining xususiy kompaniyalar qo‘lida jamlanishi esa bozor va jamoat manfaati ziddiyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Ziddiyatlarni hal etishning maqbul yo‘li “moslashuvchan integratsiya” va “ijtimoiy kiritilgan bozor” tamoyillariga tayangan polisubyekt model bo‘lib, uning institutsional asosini nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklik tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar tavsiya etiladi: ta’limni raqamlashtirish siyosatiga raqamli tafovutning uch darajasini qamrab oluvchi ijtimoiy tenglik ko‘rsatkichlarini kiritish; raqamli infratuzilma bo‘yicha sheriklik shartnomalarida chekka hududlarni qamrab olish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlari uchun imtiyozli kirish va ma’lumotlar xavfsizligi bo‘yicha majburiyatlarni belgilash; xorijiy va onlayn ta’lim dasturlarida milliy ta’lim standartlarining majburiy tarkibiy qismini saqlash; ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishni YuNESKO tavsiyalariga mos ravishda milliy darajada tartibga solish; sheriklik loyihalarini boshqarishning yagona ochiq elektron platformasini shaxsiy ma’lumotlar himoyasi va foydalanuvchilar fikrini o‘rganish bilan birga rivojlantirish.

Kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida O‘zbekistonda raqamli tafovut darajalarini empirik o‘lchash, ta’limdagi EdTech subyektlarini tartibga solishning huquqiy-falsafiy asoslarini ishlab chiqish hamda raqamli ta’lim sohasidagi sheriklikning qadriyatiy asoslari — ishonch, ijtimoiy adolat va mas’uliyatni tadqiq etish ko‘rsatilishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Beijing Consensus on Artificial Intelligence and Education. Paris: UNESCO, 2019.
2. Castells, M. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell, 1996.
3. Cerny, P.G. Paradoxes of the Competition State: The Dynamics of Political Globalization // Government and Opposition. 1997. Vol. 32, No. 2. P. 251–274.

4. General Agreement on Trade in Services // Marrakesh Agreement Establishing the World Trade Organization. Annex 1B. Marrakesh, 1994.
5. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023.
6. Musgrave, R.A. The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy. New York: McGraw-Hill, 1959.
7. Polanyi, K. The Great Transformation: The Political and Economic Origins of Our Time. New York: Farrar & Rinehart, 1944.
8. Robertson, R. Globalization: Social Theory and Global Culture. London: Sage, 1992.
9. Srnicek, N. Platform Capitalism. Cambridge: Polity Press, 2016.
10. Van Dijk, J.A.G.M. The Deepening Divide: Inequality in the Information Society. Thousand Oaks: Sage, 2005.
11. Williamson, B. Big Data in Education: The Digital Future of Learning, Policy and Practice. London: Sage, 2017.
12. Абдикаримова, З.Б. Таълим тизимида давлат-хусусий шериклик муносабатларини ташкил этиш тамойиллари, шерикликнинг устувор ва заиф жиҳатлари // Iqtisodiyot va ta’lim. 2023. № 2. Б. 323–329.
13. Алибеков, Д.А. Таълим тизимини инновацион ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий хусусиятлари: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. Самарқанд, 2021.
14. Давлат-хусусий шериклик асосида мактабгача таълим муассасаларини ташкил этиш ва фаолият кўрсатишида ноҳалоллик ва коррупция хавф-хатари омилларини баҳолашнинг якуний ҳисоботи. [Т.]: «Юксалиш» умуммиллий ҳаракати, Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги, 2023.
15. Жуманиязова, Н.С. Ўзбекистон олий таълим тизими модернизациялашувининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. Тошкент, 2022.
16. Липшиц, Б.С. Российская система образования: проблемы модернизации в контексте глобализационных вызовов: дис. … канд. филос. наук: 09.00.11. Краснодар, 2006.
17. Михальченкова, Н.А. Политические детерминанты государственной политики в сфере высшего образования: соотношение глобального и национального: дис. … д-ра полит. наук: 23.00.02. СПб., 2017.
18. Суннатов, Н.Б. Таълим инновацияларининг фалсафий-методологик жиҳатлари: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. Тошкент, 2022.
19. Эгамбердиев, А.А. Ўзбекистонда олий таълим тизими трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: фалсафа фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. Андижон, 2022.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G‘OYA VA YECHIMLAR

XXI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar.
XXI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.
2-jild, 21-son (12-noyabr, 2026-yil). – 134 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro‘yaxatidan o‘tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: https://konferensiyalar.com

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2026-yil, 9-noyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.